



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

BO‘LAJAK ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITUVCHILARINI TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASI USTIDA ISHLASHGA O‘RGATISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Matniyozova Dilrabo Ulug‘bekovna

"International school of finance technology and science", o‘qituvchi

Annotatsiya.

Mazkur maqolada bo‘lajak ona tili va adabiyot o‘qituvchilarini tinglab tushunish ko‘nikmasi ustida ishlashga o‘rgatish masalasi pedagogik muammo sifatida yoritiladi. Tadqiqotda tinglab tushunish ko‘nikmasining kasbiy-pedagogik faoliyatdagi o‘rni, uning o‘qituvchi nutq madaniyati, muloqot kompetensiyasi va ta‘lim jarayonini samarali tashkil etishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar, mavjud ta‘lim amaliyotidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda mazkur ko‘nikmani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, metodik yondashuvlari va o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan samarali usullar yoritilib, tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: tinglab tushunish ko‘nikmasi, ona tili va adabiyot o‘qituvchisi, pedagogik muammo, nutqiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik, ta‘lim jarayoni, metodik yondashuvlar.

ОБУЧЕНИЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ РАБОТЕ НАД НАВЫКАМИ АУДИРОВАНИЯ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Матниёзова Дилрабо Улугбековна

преподаватель Самаркандского филиала

Института «International School of Finance Technology and Science»

Аннотация.

В данной статье рассматривается проблема обучения будущих учителей родного языка и литературы работе над навыками аудирования как важная педагогическая задача. В исследовании обосновывается роль навыков аудирования в профессионально-педагогической деятельности, их значение для развития речевой культуры учителя, коммуникативной компетенции и эффективной организации образовательного процесса. Также анализируются факторы, препятствующие развитию навыков аудирования, существующие проблемы в образовательной практике и пути их преодоления. В статье раскрываются педагогические условия, методические подходы и эффективные методы формирования навыков аудирования у будущих учителей, а также научно-теоретически доказывается, что развитие навыков аудирования является важной составляющей профессиональной компетентности педагога.

Ключевые слова: навыки аудирования, учитель родного языка и литературы, педагогическая проблема, речевая компетенция, коммуникативная компетенция, профессиональная подготовка, образовательный процесс, методические подходы.

TEACHING FUTURE NATIVE LANGUAGE AND LITERATURE TEACHERS TO DEVELOP LISTENING COMPREHENSION SKILLS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Matniyozova Dilrabo Ulugbekovna

Samarkand Branch of the International School of Finance Technology and Science
Institute, teacher

Abstract.

This article examines the issue of teaching future native language and literature teachers to develop listening comprehension skills as a significant pedagogical problem. The study substantiates the role of listening comprehension skills in professional pedagogical activity, emphasizing their importance in enhancing teachers' speech culture, communicative competence, and effective organization of the educational process. The article also analyzes factors hindering the development of listening comprehension skills, existing problems in educational practice, and possible ways to overcome them. Furthermore, the pedagogical conditions, methodological approaches, and effective teaching methods for developing listening comprehension skills among future teachers are discussed. The study provides a scientific and theoretical justification that the development of listening comprehension skills is an essential component of a teacher's professional competence.

Keywords: listening comprehension skills, native language and literature teacher, pedagogical problem, speech competence, communicative competence, professional training, educational process, methodological approaches.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining nutqiy kompetensiyasi uning kasbiy faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilari uchun tinglab tushunish ko'nikmasini puxta egallash va uni talabalarda shakllantira olish kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida mazkur ko'nikma ko'pincha mustaqil pedagogik muammo sifatida yetarlicha e'tiborga olinmayapti. Tinglab tushunish ko'nikmasi nutqiy faoliyatning passiv turi sifatida baholansa-da, aslida u murakkab kognitiv-psixologik jarayon bo'lib, eshitilgan nutqni idrok etish, tahlil qilish, umumlashtirish va baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Bo'lajak o'qituvchi ushbu jarayon mexanizmlarini chuqur anglamas ekan, u nafaqat o'z nutqiy kompetensiyasini rivojlantira olmaydi, balki talabalarda tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishda ham qiyinchiliklarga duch keladi.

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1;14-bet.], – deya ta'kidlanishi ona tili ta'limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib ona tililashdek dolzarb vazifalarni qo'yadi.

Mazkur muammo pedagogik nuqtayi nazardan bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, amaldagi o'quv reja va dasturlarda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tizimli va maqsadli tarzda tashkil etilmaydi. Ikkinchidan, bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilarida tinglab tushunishni o'rgatish metodikasi bo'yicha yetarli nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar shakllanmagan. Uchinchidan, ta'lim jarayonida tinglab tushunishga doir topshiriqlar ko'pincha reproduktiv xarakterda bo'lib, talabaning tahliliy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilmaydi.

Shuningdek, tinglab tushunish ko'nikmasini o'rgatishda psixologik omillar — diqqatni jamlash, eshituv xotirasi, nutq tezligi va ohangini idrok etish kabi jihatlar yetarli darajada hisobga olinmaydi. Natijada bo'lajak o'qituvchining o'zi tinglab tushunishda passiv pozitsiyada qoladi, bu esa uning kelajakdagi pedagogik faoliyatida samarali muloqot olib borishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilarini tinglab tushunish ko'nikmasi ustida ishlashga o'rgatish pedagogik muammo sifatida qaralganda, mazkur jarayonni kompetensiyaviy, faoliyatga

yo‘naltirilgan va kommunikativ yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati yuzaga keladi. Bu esa ta‘lim jarayonida interaktiv metodlar, autentik matnlar, audio va video materiallardan samarali foydalanishni, shuningdek, refleksiv tahlilga asoslangan mashqlar tizimini joriy etishni taqozo etadi.

1.1-jadval

Pedagogik muammo	Muammoning mazmuni	Sabablari	Ta‘lim jarayonidagi oqibatlar	Bartaraf etish yo‘llari
Tinglab tushunishga yetarli e‘tibor berilmasligi	Ko‘nikma mustaqil kompetensiya sifatida qaralmasligi	O‘quv dasturlarida ustuvorlikning yo‘qligi	Talabanning nutqiy kompetensiyasi nomukammal shakllanadi	Tinglab tushunishni alohida o‘quv maqsadi sifatida belgilash
Metodik tayyorgarlikning sustligi	Tinglab tushunishni o‘rgatish usullarini bilmaslik	Maxsus metodik mashg‘ulotlarning kamligi	Kelajakda o‘qituvchi talabalar bilan samarali ishlay olmaydi	Maxsus metodik kurs va treninglar joriy etish
Reproduktiv topshiriqlar ustunligi	Tahliliy va ijodiy mashqlarning yetishmasligi	An‘anaviy yondashuvga bog‘lanib qolish	Tanqidiy fikrlash rivojlanmaydi	Muammoli, refleksiv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish
Psixologik omillar hisobga olinmasligi	Diqqat va eshituv xotirasi rivojlantirilmassligi	Individual xususiyatlar e‘tibordan chetda qolishi	Tinglab tushunish samaradorligi pasayadi	Psixolingvistik yondashuv asosida mashqlar ishlab chiqish
Autentik materiallardan kam foydalanish	Real nutq namunalarining yetishmasligi	Texnik va resurs ta‘minotining cheklanganligi	Talaba real muloqotga tayyorlanmaydi	Audio va video materiallarni tizimli qo‘llash
Refleksiyaning yo‘qligi	Tinglangan matn ustida tahlil olib borilmasligi	Baholash mezonlarining aniq belgilanmaganligi	O‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasi shakllanmaydi	Refleksiv baholash va tahlil mexanizmlarini joriy etish

Bo‘lajak ona tili va adabiyot o‘qituvchilarini tinglab tushunish ko‘nikmasi ustida ishlashga o‘rgatish mustaqil va dolzarb pedagogik muammo bo‘lib, uni hal etish oliy pedagogik ta‘lim mazmunini takomillashtirish, metodik ta‘minotni boyitish hamda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy nutqiy kompetensiyasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Tinglash – eshitish faoliyati davomida ma‘lumotni tushunish qobiliyatiga ega bo‘lishni yoki yozma og‘zaki muloqotda ma‘lumot uzatish qobiliyatiga ega bo‘lishni anglatadi. Bu tinglangan narsani tushunish, muloqot qilish va javob berish qobiliyati bilan bog‘liq. Yaxshi tinglash qobiliyatiga ega bo‘lish til o‘rganuvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardan biridir, chunki u muloqot jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Talabalarning kommunikativ qobiliyalari ularning tinglash qobiliyatlari bilan birgalikda yaxshi ishlaydi. Chunki har qanday muloqotda ham aytilgan fikrni tinglab to‘g‘ri tushunish orqali unga aniq javob berish

mumkin, ya'ni to'g'ri muloqotga kirishish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, agar tinglash jarayoni ko'nikma hosil qilinib kompetentlik bilan qo'llab-quvvatlanmasa, muloqot yaxshi ishlamaydi, kommunikativlik kamayadi. Bugungi kunda ona tili o'qitishdan asosiy maqsad ham ayni kommunikativlikni oshirish talaba nutqini to'g'ri va ravon shakllantirishdir. Tinglash esa kundalik muloqot jarayonida asosiy o'rinda turadigan faoliyatlardan biridir.

Tinglab tushunish bo'yicha tilshunoslik bilimlari o'quvchilarning fonologiya, sintaksis, leksika, semantika va nutq tuzilishini tushunish qobiliyatlari bilan bog'liq. Demak, nolingvistik bilimlar mavzu, kontekst va umumiy bilimlar haqidagi tushunchalardir. Ularning ikkalasi ham eshitish ma'lumotlarni tushunish jarayonida juda zarur, chunki tinglash murakkab jarayondir. Demak, tinglash jarayonida talaba bor bilimlarini va diqqatini ishga solishi kerak bo'ladi. Suhbat yoki monologda so'zlovchilar tomonidan qo'llaniladigan so'zlarning ma'nosini va ma'nodoshlarini yaxshi bilmaslik tinglovchilarning ma'lumot olish qobiliyatiga ta'sir qiladi, ayniqsa, odatda hali ham so'z boyligi cheklangan, shevalardan holi bo'lmagan til o'rganuvchilari topshiriqlarda qiyinchilikka ucharashadilar. Ular nutq jarayonida ma'lumotlarni uzatish va qabul qilishda jiddiy muammolarga duch kelishadi. Keyingi o'rinda, gap tuzilishini yaxshi tushunish talabalarining tinglash faoliyatiga ham ta'sir qilishi mumkin.

Masalan, talabalar gap bo'laklari ketma ketligi, gaplarning zamonini tanib, tinglangan og'zaki ma'lumotlarning vaqt ketma-ketligini aniqlashini osonlashtiradi va topshiriqlarni yaxshi ishlashga yordam beradi. Tinglovchilarning tinglash faoliyatidagi mahoratiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan yana bir omil ularning har bir so'zning talaffuzini to'g'ri bilish qobiliyati bilan bog'liq, chunki muloqot jarayonida: so'zlar, iboralar va jummalarni talaffuz jarayonida bir-birdan ajratib bo'lmaydi. Demak, talabalar tinglash faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun o'zlarining asosiy "til bilimlarini": intonatsiya, tinglash strategiyalarini, talaffuz va grammatikalarini takomillashtirib borishlari shart. Ingliz olimi Bak tinglab tushunish topshirig'ini ishlashda va tuzishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan ba'zi komponentlar mavjudligini ham ta'kidlaydi. Ular: fonologiya, urg'u, prozodik xususiyatlar, nutq tezligi, to'xtamlar va nutq tuzilishi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tinglab tushunish jarayonida tinglovchilar ushbu komponentlar bilan shug'ullanadilar. Bundan tashqari, talabalar dolzarb muammolar, tarix, ilmiy tadqiqotlar va boshqa mavzular bilan bog'liq umumiy bilimlarga ega bo'lishlari kerak, chunki har bir muloqot jarayoni maqsadli taqdim etilgan asosiy ma'lumotlarga egadir [2;230-bet.].

Guruhda o'qituvchi tomonidan tinglab tushunish topshiriqlari taqdim etilishidan oldin ma'lum bir mavzuni bilgan yoki o'qigan talaba, u boshqalarga qaraganda osonroq ma'lumot olishiga imkoni bo'ladi. Buning sababi shundaki, kimningdir asosiy, dunyoviy bilimlari tinglash vaqtida tushunish jarayoniga yaxshi ta'sir qilishi mumkin. [3;22-bet.]. Demak, talabalar tinglash faoliyatida ularga yordam bo'lishi uchun umumiy bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlari va yangilashlari kerak. Shuningdek, ular tinglash jarayonida duch keladigan muammolarni aniqlashda yordam berish uchun tinglash strategiyalarini tayyorlashlari kerak. Talabalar yoki talabalar tinglab tushunish ko'nikmasi bilan bog'liq ba'zi tinglab tushunish topshiriqlarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelganlarida, ular topshiriqni bajarishda ularga yordam beradigan strategiyani qo'llashlari mumkin. Bunday holda, talabalar audiodan muhim fikrlarni payqash uchun qayd qilish strategiyasini qo'llashlari mumkin. Keyin ular yozgan eslatmalardan foydalanib, barcha savollarga javob berishlari mumkin. Talabalar tushunish jarayonida ularga oson bo'lishi uchun pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga strategiyalarni ham qo'llashlari mumkin. Pastdan yuqoriga strategiyasida talabalar tinglash jarayonini boshlashdan oldin audioda muhokama qilinishi mumkin bo'lgan mavzu bo'yicha o'zlarining asosiy bilimlarini faollashtirib oladilar. Qo'yilishi mumkin bo'lgan mavzu yuzasidan o'zlarida mavjud bo'lgan bilimlarni tezlikda eslab oladilar. Yoki diologlarda nima haqida suhbat borishini faraz qilib oladilar.

Yuqoridan pastga strategiyasida esa talabalar tinglash jarayonini audiomatnni tinglash

orqali topshiriqni ishlashni boshlashlari mumkin. Muxtasar qilib aytganda, talabalar tinglash faoliyatida tinglash strategiyalarini qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Biroq, bu strategiya va natijalarga amaliy mashg'ulotlarsiz, mashq qilmasdan erishib bo'lmaydi. talabalarning tinglash amaliyoti ham ularning tinglab tushunish ko'nikmasini oshirishning ta'sirli omillaridan biridir. Ular o'z mahoratlarini oshirish, ayniqsa, ma'ruzachilar tomonidan aytilgan monolog yoki dialoglarni tushunishda juda ko'p amaliyotga ega bo'lishlari zarur. Tajriba sinovi o'tkazilganda, talabalarning ta'kidlashicha, ma'ruzachi nutqi talabalarni ko'plab chalkashliklarga olib keladi, hatto o'qituvchi audioni ikki yoki uch marta qo'ygan bo'lsada. Aslida, bu katta muammo emas, ular faqat ona tilida so'zlashuvchilarning muloqot qilish uslublarini yaxshi bilishmaydi yoki nutqda asosan shevalardan foydalanib, adabiy til me'yorlariga amal qilishmaydi, yoki sinonim so'zlar bilan bog'liq muammolari bor.

Chet elda, asosan, ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasi va uning topshiriqlari ustida samarali ishlar olib borilganini ko'rish mumkin. Ushbu jarayonlar esa uzoq tarixga ega ekanligini yaqqol ko'zga tashlanadi. Aynan shu sohaga oid dissertatsiya, monografiyalar, hattoki tajriba sinovlari uchun laboratoriyalar tashkil etilganligi e'tiborga loyiqdir. Bugungi kunda eng ommalashgan chet tilini bilish darajasi bo'yicha olinadigan sertifikatlar ham tinglab tushunish ko'nikmasi asosiy o'rinni egallovchi ko'nikmalardan biri sanaladi. Ammo o'zbek tilini o'qitish jarayonida tinglab tushunish ko'nikmasi biroz nazardan chetda qolmoqda. Biz asosan, e'tiborimizni grammatika o'qitishga qaratib qoldik va til o'qitish jarayonimiz ham bir joyda deysinib qoldi. Bu hodisa esa talabalar nutqini ravon va erkin bayon etishlaridagi katta to'siqlardan biriga aylanib qoldi. Talabalarda doim grammatik savodxonlik rivojlandi va nutqiy savodxonlik esa kamayib ketdi. E'tibor qaratadigan bo'lsak, hatto bugungi kundagi ona tilini bilish darajasini belgilab beruvchi "milliy sertifikat"imizda ham aynan tinglab tushunish ko'nikmasiga doir topshiriqlar mavjud emas. Ammo, yangi avlod darsliklarimiz bu ko'nikmani chetlab o'tmaganligi, jahonda ta'lim sifati rivojlangan davlatlarning ona tili darsliklariga hamohangroq tarzda yaratilganligi, talabani katta hayotga va erkin fikrlashga, dunyoviy bilimlarini kengaytirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Ammo, topshiriqlarni ishlab chiqishda, xususan tinglab tushunish topshiriqlarini tuzishda bir xillikka va kamchiliklarga yo'l qo'yganliklarini ko'rishimiz mumkin [4;412-bet.].

Umuman, talabalar tinglash faoliyatini mashq qilishlari kerak, talabalar tinglash qobiliyatini oshirish jarayonida til o'rganishga va lingvistik bilimlarga va ularni o'rganishga duch keladilar. Keyin, talabalar va o'qituvchilar bu bosqichda hamkorlikda ishlashlari zarur. Guruhdagi o'qitish va o'quv jarayonidagidagi o'qituvchilarning roli, shuningdek, tinglash ko'nikmasini to'g'ri tashkil etish talabalarning muvaffaqiyatiga olib keladi. Guruhda dars o'tish va tinglab tushunish topshiriqlarini qiziqarli tarzda taqdim etishda o'qituvchilar ba'zi amaliy ishlarni amalga oshirishlari mumkin. Masalan, topshiriqlarni taqdim etish uchun sharoit bo'lmaganda o'zlari ravon va chiroyli nutqda o'ib berishlari, yoki matnni varoqqa yozib kelib "mikrofon oldida" usulidan foydalanib talabalardan har darsda bittasini o'qitish orqali masadga erishish mumkin. Bu usul bilan nafaqat audiomatn topshiriqlari ustida ishlanadi balki talabani o'qish savodxonligi hamda talabalarning o'zgalarni tinglash ko'nikmasi ham yaxshi shakllanib boradi. Ammo, barcha til o'qituvchilari talabalarga tinglash faoliyatidagi barcha qiyinchiliklarni yengish uchun yo'naltiruvchi intensiv tinglash guruh xonalarini taqdim eta olishlari kerak shundagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi rivojlanish zamonida barcha sohalar o'zining keng qamrovliligini va o'sish jarayonini namoyish etmoqda. Bunday o'zgarishlardan ilm-fan va ta'lim ham chetda qolayotgani yo'q. Sodir bo'layotgan har qanday yangilik zahirida albatta, ilm va tajribalar yotadi. Ularning jamiyatda tom ma'noda yoyilishiga esa ta'lim sohasi o'zining katta hissasini qo'shadi. Ayniqsa, til o'rganish jadal tusga kirgan bir paytda ona tilimizni o'qitishda ham turli yangilik va o'zgarishlar kirib kelmoqda. Shulardan biri yangi darsliklarimizga kiritilgan

tinglab tushunish ko'nikmasi va unga doir topshiriqlardir. Til o'rganishning to'rtta ko'nikmasi orasida tinglash qobiliyatini rivojlantirish juda zarur. Talabalarlarda ushbu qobiliyatni to'g'ri shakllantirishga erishish uchun tilning turli tovushlari va ularning urg'ularini tushunishlari kerak. Tinglash malakasi bilan tanishish maqsadida ushbu maqola tinglashning turli jihatlarni, masalan, tinglash turlari, bosqichlari va tinglab tushunish ko'nikmasini o'qitish va o'rganishdagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016. –14-б.
2. Brown S. Teaching listening. New York: Cambridge university press. 2016. –P.235.
3. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш Пед. фанл. бўйича фал. док. (PhD)илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Т.: 2019. -22 б.
4. Kelly M. Active listening for the classroom. Retrived 3.2014. –P.412.